

MAHALLIY BYUDJET XARAJATLAR TIZIMI VA ULARNI REJALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11217373>

Choriyev Xolbek Shoniyozovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Maqolada mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimini mukammallashtirishning nafaqat respublika byudjeti, mahalliy moliya, mahalliy byudjetlarning xarajatlar siyosatiga oid faoliyati, balki joylarda byudjet xizmati ko'rsatish amaldagi holati va istiqbollari ham o'rganish, tahlil qilish va qarorlarni qabul qilish mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimini boshqarish yuzasidan samarali ishlatilish imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so'zlar: davlat moliyaviy nazorati, o'zgarma effektlar, modeli mahalliy byudjet, o'rta muddatli rejalashtirish, taraqqiyot strategiyasi, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet xarajatlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy moliyaning holati,

Mahalliy byudjetlar zimmasidagi majburiyatlarning ijrosi - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari vazifalarining bajarilishini ta'minlashga, byudjet siyosati ta'sirchanligiga, mahalliy byudjet bo'g'inlari xarajat vakolatlari doirasida byudjet ijrosi natijalarini to'g'ri baholash va oshirib borish tadbirlariga, xarajat vakolatlari doirasida moliyalashtirish imkoniyatlari manbalarini aniqlash va uning rezervlaridan manfaatli foydalanishga, mahalliy byudjetlar xarajat yo'nalishlari, guruhlari va ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishga, byudjet xarajatlari hisobi va tahliliga, byudjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazorati mukammallashuviga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu holat byudjet va ijtimoiy kafolatlarga oid maqsadlar uyg'unligida xarajatlar samaradorligini oshirish hamda byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlar zimmasidagi majburiyatlarning ijrosi - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari vazifalarining bajarilishini ta'minlashga, byudjet siyosati ta'sirchanligiga, mahalliy byudjet bo'g'inlari xarajat vakolatlari doirasida byudjet ijrosi natijalarini to'g'ri baholash va oshirib borish tadbirlariga, xarajat vakolatlari doirasida moliyalashtirish imkoniyatlari manbalarini aniqlash va uning rezervlaridan manfaatli foydalanishga, mahalliy byudjetlar xarajat yo'nalishlari, guruhlari va ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishga, byudjet xarajatlari hisobi va tahliliga, byudjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazorati mukammallashuviga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu holat byudjet va ijtimoiy kafolatlarga oid maqsadlar uyg'unligida xarajatlarning samaradorligini oshirish hamda byudjet qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunday tizimni aniqlashda jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining nazariy asoslari va umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish holati xususiyatlarini, mahalliy byudjet imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga oluvchi o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish lozim. Mahalliy byudjetning rivojlanish omillarini aniqlash uning mazmuni va tabiatini to'liq ochib berish orqali ta'minlanadi. Mahalliy byudjetning mazmuniga yondoshuvlarning tahlili ko'rsatishicha, uni tushunish va talqin etishga birday yondoshuv yo'q.

Mahalliy byudjetlarning mohiyatini o'zida mujassam etuvchi ta'riflarni qiyosiy tahlil qilish natijasida, fikrimizcha, mahalliy byudjetlarga xos bo'lgan eng muhim xarakterli belgilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan birinchisi, eng avvalo, tegishli viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilganidir. Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimiyat organlarining o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun daromadlar manbalari va tushumlar miqdoriga ega bo'lmog'i lozim. Bu ularning ikkinchi muhim xususiyatli belgisi hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar hisobidan mahalliy hokimiyatga bo'ysunuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar moliyalashtiriladi. Bu esa aniq maqsadlar uchun

ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlarini nazarda tutadi. Bu – mahalliy byudjetlarga tegishli uchinchi muhim xarakterli belgi.

Har qanday davlatning iqtisodiyot va siyosatidagi xususiyatlari uning xarajatlari ustuvorliklarida ham aks etadi. O'zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda har yili mamlakatning soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanadi va ular davlat byudjetini ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonning umumiy taraqqiyot davri davomida byudjet xarajatlari ustuvor darajada ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga sarflangan va sarflanib kelinmoqda.

Masalan, 2022-yilda barcha byudjet xarajatlarining 64% (maqsadli jamg'armalarning xarajatlarini hisobga olmaganda) ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Buning tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat, sport, ijtimoiy ta'minot tizimlarining faoliyatini moliyalashtirish orqali ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish xarajatlari (53,7%), shuningdek aholi turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan xarajatlar (10,7%), shu jumladan ko'p bolali oilalarga har oyda beriladigan nafaqalar va moddiy yordamlar, bolalikdan nogironlarga nafaqalar va boshqalar katta o'rin egallaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, «mahalliy byudjetlar mustaqilligi» ning iqtisodiy mohiyatini quyidagicha ta'riflash mumkin: hududlarning soliq va moliyaviy salohiyatidan samarali foydalanish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirish asosida o'z daromadlari hisobidan ko'zda tutilgan xarajat majburiyatlarini qoplash imkoniyatiga deyiladi. Mahalliy byudjetlar mustaqilligini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichlar sifatida mahalliy byudjetlarning xarajatlariga teng miqdordagi o'z daromadlari bilan ta'minlanganligi, daromadlari tarkibida transfertlar ulushining kamligi (yoki ko'pligi), mahalliy hokimiyatning tegishli byudjetni erkin tasarruf etishdagi vakolatlari darajasini qayd etish mumkin.

Mahalliy byudjetlar mustaqilligi nisbiy xarakterga ega bo‘lib, bunda mahalliy byudjetlar xarajatlarining tarkibiy tuzilmasi va miqdori katta ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda mamlakatda mahalliy byudjetlarning yuqori byudjetga qaramligini kamaytirish, mahalliy hokimiyat organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish, byudjet jarayonida fuqarolar ishtirokini va jamoatchilik nazoratini ta‘minlash borasida qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularda nazarda tutilgan chora-tadbirlar mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta‘minlashga hamda ularning moliyaviy jihatdan mustaqilligini oshirishga ma‘lum darajada xizmat qilmoqda.

Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi hamda Mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi Mahalliy talab-extiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga Mahalliy byudjet daromadlarining ko‘payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi.

Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib tushishini ko‘paytirish hamda resurslardan optimal foydalanishdan manfaatdordirlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o‘shish sur‘atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag‘larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu o‘z navbatida umuman O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi.

O‘tkazilgan iqtisodiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Mahalliy byudjetlardan amalga oshirilayotgan xarajatlarni oshib borishi, ma‘lum jihatdan ularni qo‘shimcha daromadlar bilan ta‘minlanishi amalga oshirilgan. Ko‘rinib turibdiki, Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllanishida davlatning ishtiroki juda kuchli va ularga

bog'lanib qolgan. Ammo bugungi kunda Mahalliy byudjetlarni daromadlar bazasini mustahkamlash davlat tomonidan ularning daromadlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirishni, Mahalliy hokimiyatlarning byudjet daromadlarini ko'paytirib borishdagi manfaatdorligini kuchaytirishni talab o'yladi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot moddasini ko'zda tutish juda muhimdir. Bunda nafaqat davlat kapital qo'yilmalari, balki Mahalliy hokimiyatlar tomonidan ham kapital qo'yilmalarni xajmini oshirishni qo'shimcha mablag'larining manbalarini topish va yo'naltirish lozimdir. Shu sababli, Mahalliy hokimiyatlar ixtiyorida xususiylashtirishdan tushayotgan tushumlarni qoldirilayotgan qismini Mahalliy byudjetlarni xarajatlari tarkibidagi taraqqiyot moddasiga jamlash va ularni ishlatish xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bu mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Malikov T., Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy //International Journal of Economic Growth and Environmental Issues-ISSN. – C. 2321-6247
2. Kobulov K. et al. Modeling the processes of forming a strategy for the revenue potential of local budgets //Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – C. 1210-1216.
3. Кабулов Х. А. Вопросы финансовой безопасности в условиях модернизации Республики Узбекистан //Интернаука. – 2020. – №. 3-2. – С. 12-14.
4. Shokirovich K. A. DIRECTIONS FOR OPTIMIZING LOCAL BUDGETS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 22. – C. 190-196.
5. Zayniddinovna B. P., Abdukarimovich Q. X. Directions For The Effective Use Of The Economic Potential Of The Region In Increasing The Revenues Of

Local Budgets //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 29. – №. 1. – C. 218-224.

6. Mamatkarimov X. A. U., Qobulov X. A. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat byudjetidan foydalanish //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 1476-1481.

7. Akbarov M. A. et al. PRIORITIES FOR DEVELOPING THE INCOMES POTENTIAL OF THE REGIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – C. 1334-1337.

